

KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI ANIQLASH

Yusupova Shahzoda Yunus qizi.

shahzodayusupova1996@gmail.com

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Nurmatova Mohlaroyim Zarif qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistranti

Abstract. The article focuses on financial literacy, which is one of the current concepts of modern education, and its delivery to primary school students. As a first step, samples of financial literacy questionnaires are provided.

Key words: primary school students, financial literacy, the formation of financial literacy of primary school students.

Аннотация. Статья посвящена финансовой грамотности, которая является одной из актуальных концепций современного образования, и ее доведению до учащихся начальных классов. В качестве первого шага предоставляются образцы анкет по финансовой грамотности.

Ключевые слова: младшие школьники, финансовая грамотность, формирование финансовой грамотности младших школьников.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'larning dolzarb tushunchalaridan biri bo'lgan moliyaviy savodxonlik va uni boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkazish haqida fikr yuritiladi. Dastlabki bosqich sifatida moliyaviy savodxonlikning darajasini aniqlash so'rovnomalari na'munalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchisi, moliyaviy savodxonlik, boshlang'ich sinf o'quvchisining moliyaviy savodxonligini shakllantirish.

Dunyo hamjamiyatidagi iqtisodiy o'zgarishlar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini belgilab bermoqda. Moliyaviy savodxonlikni oshirish rivojlangan davlatlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyalarida asosiy yo'naliishlardan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi kunda bir qancha davlatlarning rivojlanish dasturida "Moliyaviy savodxonlikni oshirish davlat dasturi", "Fuqarolarning moliyaviy madaniyati va xavfsizligi", "Kam daromadli aholining moliyaviy savodxonligini oshirish", "Kelajagingizni rejalashtiring" va boshqalar kabi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirib kelinmoqda.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik ko'plab mualliflar tomonidan ko'rib chiqilgan: J. Keysns, M. Fridman, A. Lusardi, L. Mundell, D. Remund, A. Atkinson, F. Messe, E. Zemlyanskaya, I. Sasova, M. Firsova, N. Dumnaya, O. Karamova, E. Rutkovskaya va boshqalar. "Moliyaviy madaniyat" tushunchasi A.Maloletnev, Yu.Korlyugova, S.G. Yusupov asarlarida ochib berilgan.

Shu bilan birga, yosh avlodning moliyaviy savodxonligini shakllantirish maqsadida bolalar uchun qo'shimcha ta'lim muassasalari va umumta'lim muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari o'rtaida pedagogik hamkorlikning keng imkoniyatlari va ilmiy asoslangan kadrlar yetishmasligi o'rtaida kamchiliklar aniqlandi. Xususan, kichik yoshdagi o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini shakllantirish bo'yicha qisqa muddatli qo'shimcha ta'lim dasturining samaradorligini aniqlash lozim. Buni amalga oshirishda quyidagilar hisobga olinadi:

– kichik maktab o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini shakllantirishda qo'shimcha ta'larning afzalliklari va imkoniyatlari;

- kichik yoshdagi o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini shakllantirishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar;

- moliyaviy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari;

- kichik yoshdagi o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini shakllantirishning dastlabki va joriy diagnostikasi natijalari;

- mashg'ulotlarning interfaol shakllaridan foydalanishni o'z ichiga olgan bolalarning muammolari, talablari va ehtiyojlari, ularning yoshi va individual xususiyatlari, amaliyatga yo'naltirilgan muhitni yaratishni ta'minlash. Britaniyalik iqtisodchilar A.A. Atkinson va F.A. Messe o'z ishlarida moliyaviy savodxonlikni "Oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy xabardorlik, bilim, ko'nikma, munosabat va xatti-harakatlar majmui va natijada shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish qobiliyati" sifatida belgilaydi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, moliyaviy savodxonlik shaxsning ijtimoiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. "Moliyaviy bilimlar" atamasi ma'lum moliyaviy harakatlarni amalga oshirish, moliya, moliyaviy qonunlar sohasida harakat qilish imkonini beruvchi olingan bilimlar to'plami sifatida taqqid etiladi.

Matematika moliyaviy ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun eng maqul fandir. Buning asosiy sababi moliyaviy savodxonlik va matematik qobiliyatlar o'rtaсидаги о'rnatilgan amaliy va nazariy bog'liqlik tufaylidir. Bundan tashqari matematika o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etishda katta imkoniyatlarga ega.

Pul bilan nima qilsak ham, uni yaxshi boshqarishimiz kerak. Moliyaviy ta'limning o'zaro o'quv, rejorashtirilgan dasturi bolalar va yoshlarga hozir va kelajakda o'z pullarini boshqarish uchun zarur bo'lgan ishonch, ko'nikma va bilimlarni berishga yordam beradi.

Biz shuni aniqladikki, bolalar o'rtacha 7 yoshida cho'ntak pullarini olishni, 8 yoshida birinchi mobil telefoniga ega bo'lishni boshlaydilar. Bu bolalarning har beshdan biri ularni sotib olish uchun ota-onasi yoki katta aka-opalarining mablag'laridan foydalangan. 18 yoshida ular kredit karta yoki kredit olish uchun ariza topshirishlari mumkin va mакtabni tark etishdan oldin ular ish va mustaqil yashash haqida muhim qarorlar qabul qilishlari kerak. Lekin yoshlarda o'zlari mustaqil pul topish va ularni jamg'arish ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj hech qachon kuchli bo'lмаган. Buning asosiy sababi ota-ona ularning ehtiyojlarini ta'minlash manbai bo'lib qolgan.

Hozirgi kun yoshlari o'rtasidagi muammolardan biri keljak rejalar haqida o'ylab ko'rmasliklari, isrofgarchiliklarga yo'l qo'yishlarini misol qilish mumkin. Natijada ular mustaqil hayotga qadam qo'yanlarida moliyaviy bilimga ega emasliklari ularga qiyinchiliklar tug'diradi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun biz bolaga yoshligidanoq moliyaviy bilim berib borishimiz lozim. Ushbu asos uchta asosiy masala bo'yicha moliyaviy bilim, ko'nikma va munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash orqali moliyaviy ta'limni rejorashtirish, o'qitish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan:

- pulni qanday boshqarish kerak;

- tanqidiy iste'molchiga aylanish;

- pulning hayotimizdagи muhim rolini tushunish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash uchun bir necha bosqichli so'rovnomalar o'tkazish maqsadga muvofiq. Biz bu so'rvonoma natijalari orqali o'quvchilarning pul haqidagi dastlabki tushunchalarini baholashimiz mumkin. Bu o'zi nega kerak degan savol tug'ilishi mumkin. Biz bolaga yoshligidan pul haqida, uni to'g'ri sarflash, jamg'arish, undan foydalanish to'g'risida bilim bermas ekanmiz, uning keljakdagi muhim moliyaviy tanlovlarda xatolarga yo'l qoyishiga sababchi bo'lib qolamiz. Shu sababli bolaga yoshligidan tanqidiy iste'molchi bo'lishni, puldan to'g'ri foydalanishni o'rgatib borishimiz lozim.

Pulni boshqarish.

Pul haqida dast

No	Pul va tangalar haqida nimalarni bilasiz?	Qog'oz pullar va tangalarning nomlarini aytib bera olasizmi? (misol uchun, 100 so'mlik tanga, 5000 so'mlik qog'oz pul ...)	Tangalar va qog'oz pullarning qiymatlari

Tanqidiy iste'molchi bo'lish.

Pulni sarflash			
No	Pulni turli joylarda va turli narsalarga sarflash mumkinligi haqida nimalarni bilasiz?	Pulni qanday sarflash haqida tanlov qila olasizmi?	Odamlar pulni qanday sarflashi mumkin?
Pulni jamg'arish			
	Pulingizning bir qismini keyinroq ishlatish uchun tejash mumkinligini bilasizmi? Masalan, qutida.	Pulingizning bir qismini tejash haqida tanlov qila olasizmi?	Odamlar pullarini qanday usullarda saqlashlari mumkin?

Hayotimizda pulning muhim rol o'ynashini tushunish.

Puldan foydalanish			
No	Pulni turli ehtiyoj va maqsadlarda foydalanish kerakligi haqida nimalarni bilasiz?	Puldan foydalanishning turlari nomlarini aytib bera olasizmi?	Siz pul nima uchun ishlatalishini bilasizmi?



Eslatma: So'rovnoma 5-8 yoshli bolalarga mo'ljallangan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun yoshlari har sohada komil bo'lishlari zamon talabidir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlikni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish uchun moliyaviy ta'lim dasturini tuzish va turli interaktiv, o'yin texnologiyalardan foydalangan maqsadga muvofiq.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. PISA 2018 Results (Volume IV): Are Students Smart about Money?
2. OECD 2020.
3. Сулейманова С. Кухар. С.А “Формирование финансовой грамотности младших школьников в условиях дополнительного образования”. ВЕСТНИК ПГГПУ-2019г.
4. Alma Abylkassymova. Akhan Mubarakov. “Assessment of Financial Literacy Formation Methods in Mathematics Education: Financial Computation” iJET – Vol. 15, No. 16, 2020 <https://doi.org/10.3991/ijet.v15i16.14587>.
5. Atkinson, A., Messy, F.A. (2012). Measuring financial literacy: Results of the oecd/international network on financial education (infe) pilot study. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions(15). <https://doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en>.
6. www.young-money.org.uk